




O`ZBKEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI



**SAMARQAND
DAVLAT
UNIVERSITETI**



SAMARQAND - TEMURIYLAR SALTANATINING TARIXIY POYTAXTI

Samarqand shahri janubi-sharqiy O‘zbekistonda, Pomir-Oloy tog‘lari bilan o‘ralgan go’zal va betakror Zarafshon vodiysida joylashgan.

Samarqand ajoyib shahar. Dunyo ko‘zgusi, kungil bog‘i, Sharq durdonasi, Yer yuzi sayqali - faylasuflar va shoirlar uni qanday nomlashlaridan qat’iy nazar, uning asl go‘zalligi va madaniy boyliklarini ta’riflashga til ojiz! Uning ulug‘vorligini va butun hashamatini faqatgina o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rib, bahramand bo‘lishingiz mumkin.

Buyuk Ipak yo‘li ustidagi bu afsonaviy shahar bir necha ming yillik tarixi davomida yuksalish va qulashlarni boshidan o‘tkazib, ko‘plab bosqinlar va istibdodlarga uchraganiga qaramay, yanada gullab-yashnab, qayta tiklangan. G‘arbga Fors yurtiga, sharqqa Xitoy va janubga

Hindistonga bo‘lgan savdo yo‘llari aynan shu yerda to‘qnashgan va Buyuk Ipak yo‘li chorrahalarini tashkil etgan.



SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETIGA

XUSH KELIBSIZ!

Universitetga o'qishga kirish har bir insonning kelgusi hayoti va taqdirini belgilovchi muhim qadamadir. Shunga ko'ra Sizning kelajakda qaysi soha mutaxassisini bo'lishingizni belgilab beruvchi oliy ta'lif muassasasini aniqlab olishingiz juda muhimdir.

Agar Siz Samarqand davlat universitetida oliy ma'lumot olishga qaror qilsangiz, bu shubhasiz, to'g'ri qaror bo'ladi.

Samarqand davlat universiteti O'zbekistondagi eng yirik oliy ta'lif muassasalaridan biridir. Universitetda O'rta Osiyoning turli hududlaridan kelgan 13000 ga yaqin talaba tahsil oladi.

Universitet tarkibiga 14 fakultet, tayyorlov bo'limi va til markazi, shuningdek, qator ilmiy va o'quv laboratoriyalari kiradi. Universitetning 3,5 milliondan ortiq kitoblarni o'z ichiga oluvchi Abdurahmon Jomiy nomidagi axborot-resurs markazi O'zbekiston universitetlari tizimida yagonadir.

Sport kompleksi, tibbiyot markazi, kompyuter xonalari, ijodiy markazlari bilan universitet haqli ravishda faxrlana oladi.

Biz o'z oldiga zamonaviy ilg'or texnologiyalar asosida sifatli ta'lif olishni maqsad qilib qo'ygan yoshlarni SamDU talabalari safida ko'rishdan baxtiyormiz. Doimo yangilikka intiling, tirishqoq bo'ling va qiyinchiliklardan sira cho'chimang. Buning barchasi Sizning layoqatingizni yuzaga chiqarishga va ilm-fanda, jamiyatda o'z o'rningizni topishingizga, albatta, yordam beradi.


Sizni universitetda kutib qolamiz! Hurmat bilan, SamDU rektori

R.I.Xalmuradov





FAKULTET



KAFEDRA



39 BAKALAVRIAT

DASTURLARI

40 MAGISTRATURA

DASTURLARI

47 PhD DASTURLARI



14 TADQIQOT
LABORATORIYASI



64 HAMKOR-
TASHKILOT




3 O'QUV-
DALA
MARKAZI

BIZ RAQAMLARDA



13000 DAN ZIYOD
TALABA, JUMLADAN
XORIJY TALABALAR HAM



1000 PROFESSOR-O'QITUVCHILAR
82 FAN DOKTORLARI
(ulardan **67** professorlar)
420 FAN NOMZODLARI
(ulardan **350** dotsentlar)



1 GERBARIY
1 BOTANIKA BOG'I
5 MUZEY



16 O'QUV KORPUSI
3 SPORT ZALI
5 ZAMONAVIY YOTOQXONA

UNIVERSITET FAKULTETLARI



MEXANIKA-MATEMATIKA
<http://samdu.uz/fakultet/mexanika-matematika-fakulteti>
mathfaculty@samdu.uz



BIOLOGIYA
<http://samdu.uz/en/fakultet/biologiya-fakulteti>
biologiya@samdu.uz




FIZIKA
<http://samdu.uz/fakultet/fizika-fakulteti>
fizika@samdu.uz



KIMYO FAKULTETI
<http://samdu.uz/fakultet/kimyo-fakulteti>
kimyo-fak@samdu.uz



AMALIY MATEMATIKA VA INFORMATIKA
<http://samdu.uz/fakultet/amaliy-matematika-va-informatika-fakulteti>
amalmat@samdu.uz



PSIXOLOGIYA-VA IJTIMOIY FANLAR
<http://samdu.uz/fakultet/psixologiya-va-ijtimoiy-fanlar-fakulteti>
ijtimoiy@samdu.uz



IQTISODIYOT VA BIZNES
<http://samdu.uz/en/fakultet/iqtisodiyot-va-biznes-fakulteti>
econom@samdu.uz



TARIX
<http://samdu.uz/fakultet/tarix-fakulteti>
dilfuza.djurakulova70@mail.ru



GEOGRAFIYA VA EKOLOGIYA
<http://samdu.uz/en/fakultet/geografiya-fakulteti>
s.abbasov@samdu.uz




FILOLOGIYA
<http://samdu.uz/fakultet/filologiya-filologiya-uz@samdu.uz>



JISMONIY MADANIYAT
<http://samdu.uz/fakultet/jismoniymadaniyat-fakulteti>
sport@samdu.uz



RUS FILOLOGIYASI
<http://samdu.uz/en/fakultet/rus-filologiyasi-fakulteti>
filologiya-ru@samdu.uz




MAKTABGACHA TA'LIM
<http://samdu.uz/fakultet/maktabgacha-talim-fakulteti>
maktabgacha@samdu.uz



PEDAGOGIKA
<http://samdu.uz/fakultet/pedagogika-fakulteti>
ped-fak@samdu.uz

MAGISTRATURA MUTAXASSISLIK RO'YXATI

5A110701 TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI	5A111101 MUSIQA TA'LIMI VA SAN'AT	5A111201 O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
5A110901 PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI (FAOLIYAT TURI BO'YICHA)	5A111601 IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISH METODIKASI (MA'NAVİYAT ASOSLARI)	5A112001 JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARI NAZARIYASI VA METODIKASI
5A120101 ADABIYOTSHUNOSLIK (O'ZBEK ADABIYOTI)	5A120101 ADABIYOTSHUNOSLIK (TOJIK ADABIYOTI)	5A120101 ADABIYOTSHUNOSLIK (RUS ADABIYOTI)
5A120102 LINGVISTIKA (RUS TILI)	5A120301 O'ZBEKİSTON TARIXI	5A120102 LINGVISTIKA (O'ZBEK TILI)
5A120304 TARIXSHUNOSLIK, MANBASHUNOSLIK VA TARIXIY TADQIQOTLAR METODLARI (MAMLAKATLAR BO'YICHA)		5A130101 MATEMATIKA (YO'NALISHLAR BO'YICHA)
5A120401 ARXEEOLOGIYA	5A120503 ETIKA VA ESTETIKA	5A120102 LINGVISTIKA (TOJIK TILI)
5A130102 EXTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKA	5A140502 MATERIALLAR VA MODDALAR KIMYOSI (MATERIALLAR BO'YICHA)	5A130103 DIFFERENSIAL TENGLAMALAR VA MATEMATIK FIZIKA
5A140201 NAZARIY FIZIKA	5A140103 IXTILOGIYA VA GIDROBIOLOGIYA	5A140101 ZOLOGIYA
5A140101 BIOLOGIYA (FAN YO'NALISHI)	5A140203 GELIOFIZIKA VA QUYOSH ENERGIYASIDAN FOYDALANISH	5A140202 FIZIKA (YO'NALISHLAR BO'YICHA)
5A130202 AMALIY MATEMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI	5A140204 KONDENSATSIYALANGAN MUHITLAR FIZIKASI VA MATERIALSHUNOSLIK (TURLARI BO'YICHA)	5A140205 ATOM YADROSI VA ELEMENTAR ZARRACHALAR FIZIKASI VA TEZLASHTIRUVCHI TEXNIKA
5A140501 KIMYO (FAN YO'NALISHI)	5A230110 DEMOGRAFIY. MEHNAT IQTISODIYOTI	5A140302 DEFORMATSIYALANUVCHI QATTIQ JISM MEXANIKASI
5A140401 ASTRANOMIYA (TADQIQOT YO'NALISHI BO'YICHA)	5A141001 TUPROQSHUNOSLIK (FAOLIYAT TURI BO'YICHA)	5A140602 GEOGRAFIYA (O'RGANISH OBYEKTI BO'YICHA)
5A140104 BIOTEXNOLOGIYA	5A230101 IQTISODIY NAZARIYA	5A231701 KADRLAR MENEJMENTI
5A120302 TARIX (YO'NALISHLAR VA MAMLAKATLAR BO'YICHA)	5A630102 EKOLOGIYA (TARMOQLAR VA SOHALAR BO'YICHA)	5A141101 GIDROLOGIYA (O'RGANISH OBYEKLARI BO'YICHA)



MEXANIKA-MATEMATIKA FAKULTETI

Hozirgi kunda fakultetda “Matematika” va “Mexanika” ta’lim yo’nalishlari bo’yicha bakalavrlar, “Matematika (funktional analiz)”, “Matematika (matematik analiz)”, “Matematika (Matematik mantiq, algebra va sonlar nazariyasi)”, “Differensial tenglamalar va matematik fizika”, “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika”, “Deformasiyalanuvchi qattiq jismlar mexanikasi” mutaxassisliklari bo’yicha magistrler taylorlanmoqda va 01.01.02 –differensial tenglamalar va matematik fizika, 01.01.01-matematik analiz mutaxassislik bo’yicha doktarantura faoliyat ko’rsatmoqda.



FIZIKA FAKULTETI

Hozirda fizika fakultetida 6 ta mutaxassislik kafedralari faoliyat ko’rsatmoqda: “Optika”, “Umumiy fizika”, “Nazariy fizika va kvant elektronika”, “Astronomiya”, “Qattiq jismlar fizikasi”, “Yadro fizikasi”. Fakultetda 3 ta bakalavr dasturlari bo’yicha: “Fizika”, “Astronomiya, elektronika va asbobsozlik” hamda 6 ta magistratura mutaxassislik bo’yicha; “Fizika (yo’nalishlar bo’yicha)”, “Geliofizika va quyosh energiyasidan foydalanish”, “Astronomiya, Kondensatsiyalangan holatlar fizikasi va materialshunoslik”, “Nazariy fizika”, “Atom yadrosi va elementar zarralar fizikasi, tezlashtiruvchi texnika” malakali kadrlar taylorlanmoqda.



BIOLOGIYA FAKULTETI

Fakultetda «Biologiya (turlari bo’yicha)», «Biotexnologiya (oziq-ovqat, ozuqa, kimyo va qishloq xo’jaligi)», «Dorivor o’simliklarni yetishtirish va qayta ishslash texnologiyasi» yo’nalishlari bo’yicha bakalavrlar, «Biologiya (Botanika, Zoologiya, Odam va hayvonlar fiziologiyasi)», «Biotexnologiya», «Zoologiya» va «Ixtiobiologiya» va gidrobiologiya mutaxassisliklari bo’yicha magistrantlar hamda 4 ta ixtisoslik bo’yicha doktorantlar taylorlanmoqda. Fakultetda “Botanika”, “Zoologiya”, “O’simliklar fiziologiyasi” va mikrobiologiya”, “Odam va hayvonlar fiziologiyasi” va biokimyo” hamda “Genetika va biotexnologiya” kafedralari mavjud. Bu kafedralarda 6 ta fan doktori, professorlar, 25 ta fan nomzodi, dosentlar faoliyat ko’rsatmoqda.



KIMYO FAKULTETI

Hozirgi kunda kimyo fakultetida to’rtta kafedra “Analitik kimyo”, “Noorganik kimyo va materialshunoslik”, “Organik va bioorganik kimyo” va “Fizikaviy va kolloid kimyo” kafedralari faoliyat olib bormoqda. Fakultetda «Kimyo», «Kimyoviy texnologiya» va «Materialshunoslik va yangi materiallar kimyosi» yo’nalishlari bo’yicha bakalavrlar, «Kimyo» va «Materialshunoslik va yangi materiallar kimyosi» mutaxassisliklari bo’yicha magistrler tahsil olishmoqda. Fakultetda analitik kimyo, anorganik kimyo, fizikaviy kimyo va organik kimyo ilmiy maktablari mavjud.



TARIX FAKULTETI

Bugungi kunda fakultetda “O‘zbekiston tarixi”, “Arxeologiya”, “Jahon tarixi”, “Tarixshunoslik va manbashunoslik” kafedralari mavjud. Fakultetda “Tarix-(jahon mamlakatlari bo‘yicha)”, “Arxeologiya”, yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavr, “Arxeologiya”, “O‘zbekiston tarixi”, “Tarix (yo‘nalishlar va mamlakatlar bo‘yicha)”, “Tarixshunoslik”, “Manbashunoslik tarixi tadqiqotlar metodlari”, “Muzeyshunoslik: konservasiya va badiiy boyliklarni saqlash” mutaxassisliklari bo‘yicha magistrantlar hamda 4 ta ixtisoslik bo‘yicha “O‘zbekiston tarixi”, “Jahon tarixi”, “Tarixshunoslik va manbashunoslik”, “Arxeologiya” kafedralarida tayanch doktorantura va doktorantura ixtisosliklari bo‘yicha oly malakali kadrlar tayyorlanmoqda.



FILOLOGIYA FAKULTETI

Hozirgi paytda fakultetda “Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)”, “Filologiya va tillarni o‘qitish (tojik tili)” yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavriat; “Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti)”, “Lingvistika (o‘zbek tili)”, “Adabiyotshunoslik (tojik adabiyoti)”, “Lingvistika (tojik tili)” mutaxassisliklari bo‘yicha magistratura ta’limi berilmoqda. 10.00.01 - O‘zbek tili. 10.00.02 - O‘zbek adabiyoti, 10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog’ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik, 10.00.05 - Osyo va Afrika xalqlari tillari va adabiyotlari bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc) ixtisosliklari bo‘yicha oly malakali kadrlar tayyorlanmoqda.



IQTISOD VA BIZNES FAKULTETI

Ijtimoiy-iqtisodiyot fakultetida “Iqtisodiyot”, “Kasb ta’limi: iqtisodiyot”, “Kadrlar menejmenti”, “Ijtimoiy ish” bakalavriatura ta’lim yo‘nalishlari, magistratura bo‘yicha “Mehnat iqtisodiyoti”, “Iqtisodiy nazariya”, “Etika va estetika” mutaxassisliklari mavjud. “Iqtisodiy nazariya” va “Demografiya, mehnat iqtisodiyoti” ixtisosliklari bo‘yicha doktorantura faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiyot fakultetida 3 ta kafedra mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir: “Iqtisodiyot”, “Kadrlar menejmenti”, “Iqtisodiy nazariya”, Fakultetda mustaqillik yillaridan boshlab ilmiy maktablar yaratilib kelinmoqda.



AMALIY MATEMATIKA VA INFORMATIKA FAKULTETI

Hozirgi paytda fakultetda “Amaliy matematika va informatika”, “Informatikani o‘qitish metodikasi” yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavriat; “Ta’limda axborot texnologiyalari”, “Amaliy matematika va axborot texnologiyalari” mutaxassisliklari bo‘yicha magistratura ta’limi berilmoqda. 05.01.02 - “Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotlarni qayta ishlash”, 01.02.05 - “Suyuqlik va gaz mexanikasi”, 05.01.07 - “Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui” ixtisosliklari bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD) va doktoranturalarda (DSc) oly malakali kadrlar tayyorlanmoqda.

Fakultetda “Axborotlashtirish texnologiyalari”, “Matematik modellashtirish”, “Optimallashtirish usullari” va “Ta’limda computer texnologiyalari” kafedralari mavjud.



GEOGRAFIYA VA EKOLOGIA FAKULTETI

Hozirgi kunda fakultetda “Geografiya”, “Ekologiya” va “Gidrometeorologiya” ta’lim yo’nalishlari bo’yicha bakalavrlar, 4 mutaxassislik “Geografiya o‘rganish obyekti”, “Ekologiya”, “Tuproqshunoslik”, “Gidrologiya” bo’yicha magistrlar tayyorlanadi.

Fakultet tarkibida «Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya», «Geografiya», «Gidrometeorologiya», «Ekologiya» kafedralari mavjud.

50 nafar professor-o‘qituvchi, jumladan, 9 nafar fan doktori, professor, 12 nafar fan nomzodi, dosent va katta o‘qituvchi assistent o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatmoqda.



PEDAGOGIKA FAKULTETI

Fakultetda bakalavriat va magistratura yo’nalishlari mavjud bo’lib, ularda quyidagi mutaxassisliklar o’qitiladi. Bakalavriat ta’lim yo’nalishlari: “Boshlang’ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish”, “Psixologiya”. Magistratura mutaxassisliklari: “Pedagogika nazariyasi va tarixi” Pedagogika kafedrasi qoshida 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo’yicha doktorantura mavjud. Hozirda fakultetda 3 ta «Pedagogika», «Psixologiya», «Boshlang’ich ta’lim metodikasi» kafedralari mavjud. 14 ta turli to’garaklarda talabalarning fanlarga bo’lgan qiziqishlari va ijodiy imkoniyatlarini ro’yobga chiqarishga sharoit yaratilgan.



RUS FILOLOGIYASI FAKULTETI

Fakultetda “Rus tilshunosligi”, “Rus va chet el adabiyoti”, “Rus tili (fakultetlararo)”, “Ingлиз тили”, “Roman-german tillari” kafedralari mavjud. Fakultetda bakalavriatning “Filologiya va tillarni o’rgatish”, “Rus tili va adabiyoti (o’zga tilli guruuhlarda)” yo’nalishlari hamda magistruraning “Lingvistika (rus tili)”, “Adabiyotshunoslik (rus adabiyoti)” mutaxassisliklari bo’yicha kadrlar tayorlanadi. Tashkil qilqangan tugaraklar talabalarda matn badiiy tahlili, sinxron va badiiy tarjima bo’yicha ko’nikmalarni hosil qilishga xizmat qiladi.



PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI

Samarqand davlat universiteti Ilmiy Kengash qarori va rector buyrug’i bilan 2018 yilda falsafa, pedagogika va psixologiya ta’lim yo’nalishlari ochilishi sababli hamda ijtimoiy fanlar hususiyatlaridan kelib chiqib “Psixologiya va ijtimoiy fanlar” fakulteti tashkil qilindi. Fakultetda “Falsafa”, “Psixologiya”, “Ijtimoiy ish”, “Milliy g’oya”, “Ma’nnaviyat asoslari va huquq ta’limi” yo’nalishlari bo’yicha talabalar tahsil olib kelmoqda.



JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI

Fakultet jismoniy madaniyat va sport mutaxassislarini tayyorlashga ixtisoslashgan. Fakultetda 4 ta kafedra mavjud. Bular “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi”, “Sport turlarini o’qitish metodikasi”, “Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” va “Hayot faoliyati xavfsizligi” kafedralari.

Talabalar bilimini oshirish, iqtidorli talabalar faoliyatini qo’llab-quvvatlash maqsadida kafedralar qoshida fan to’garaklari tashkil qilingan. Bugungacha fakultet iqtidorli talabalari ko’krak nishoni, nomdor stipendiyalari, davlat mukofotlari bilan taqdirlanganlar.



MAKTABGACHA TA’LIM FAKULTETI

Fakultet tarkibiga “Maktabgacha ta’limning pedagogikasi va psixologiyasi”, “Maktabgacha ta’limning nazariyasi va metodikasi”, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”, “Musiqiy ta’lim” kafedralar kiradi. Fakultetda talabalarning bilim olishlari uchun hamma sharoitlar yaratilgan. Talabalar turar joyi, ilmiy kutubxonalar, o’quv va kompyuter xonalari, laboratoriylar, sport inshoatlari mavjud.

Hozirgi kunda fakultetda “Maktabgacha ta’lim”, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”, “Musiqiy ta’lim” ta’lim yo’nalishlari bo’yicha bakalavrlar taylorlanmoqda.



(SamDU) XALQARO TA'LIM DASTURLAR MARKAZI

2-QAVAT

Xitoy universitetlarining ta'lif dasturlari

- Asbobsozlik - Xi'an Transport universiteti
- Muhandislik mexanikasi, Elektronika- Shanxi Universiteti



1-QAVAT MA'MURIAT

- Ro'yxatga olish
- Konferentsiya xonasi
- Axborot-resurs markazi
- Tarjima byurosi



3-QAVAT

Janubiy Koreya universitetlarining ta'lif dasturlari

- Maktabgacha ta'lif - Donguk universiteti, Gachon universiteti
- Informatsion- texnologiyalar- Seul milliy universiteti

4-QAVAT

Hindiston ta'lif dasturlari

- Dorivor o'simliklar biotexnologiyasi - Dehli universiteti
- O'simliklarni himoya qilish biologiyasi- Jawaharlal Nehru Universiteti
- Aligarh musulmon universiteti- geografik axborotlarni tahlil qilish va kartografiq modellash



6-QAVAT

Isroil universitetlarining ta'lif dasturlari

- Sanoat matematikasi - Xolon texnologiya instituti
- Biologiya va ekologiya - Weizmann universiteti
- Xalqaro innovatsiyalar va texnologiyalar transferi markazi



8-QAVAT Rossiya Federatsiyasi oly o'quv yurtlarining ta'lif dasturlari

- Matematik tadqiqotlar - MSU
- Muzeyshunoslik - SPbSU
- Robototexnika va asbobsozlik- MVTU
- Amaliy mexanika - NTGU



5-QAVAT

Yaponiya universitetlarining ta'lif dasturlari

- Robototexnika - Tsukuba universiteti.
- Gumanitar fanlar - Nagoya universiteti



7-QAVAT

Evropa Ittifoqining oly ta'lif dasturlari

- Mexanika - Münih Texnika Universiteti, Germaniya.
- Ijtimoiy ish - Sorbonne universiteti, Parij 1.
- Boloniya universiteti (Italiya) madaniy merosining saqlash va arxeologiya.



9-QAVAT

- Arxiv
- Axborot texnologiyalari va masofaviy ta'limi qo'llab-quvvatlash markazi



SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI BU:



- Tabiiy va gumanitar fanlar sohasidagi mutaxassisliklar
- O'zbek, rus, tojik va ingliz tillarida ta'lif
- Kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lif turlari
Hamkor OTMlarda qo'shimcha ta'liflar
- Chet elda malaka oshirish va amaliyot o'tash, talabalar
va o'qituvchilar almashinuv dasturlari
- Talabalarning zamonaviy turar joylari
- Mazmunli madaniy va jismoniy sog'lom hayot



UNIVERSITETDA TAHSIL OLAYOTGAN XORIJIY TALABALAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR:



TABIYY VA GUMANITAR
SOHALARDA BAKALAVR HAMDA
MAGISTR DARAJASINI OЛИSH



ILMIY STAJIROVKA
O'TASH



PhD (ASPIRANTURA) VA FAN
DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI
OЛИSH UCHUN DISSERTASIYA
ISHLARINI TAYYORLASH



OTMDA O'QISH UCHUN
TAYYORLOV DASTURI
ORQALI BILIM OЛИSH



O'QISH UCHUN TO'LOV

Xorijiy talabalarni o'qitish to'lov asosida
amalga oshiriladi.

O'QISHGA KIRISH UCHUN ZARURIY XUJJATLAR



**PASPORT VA UNING TASDIQLANGAN TARJIMASI.
TARJIMADA ISMI VA FAMILYASI VIZAGA MUTANOSIB
BO'LISHI SHART.**



**O'RTA MA'LUMOTI HAQIDAGI QONUNIY HUJJAT VA
NING TASDIQLANGAN NOTARIAL TARJIMASI.**



**TO'LDIRILGAN SO'ROVNOMA, 6 TA 3X4 HAJMDAGI
RASM.**



**O'QISHGA KIRUVCHILAR SOG'LIGI XAQIDAGI TIBBIY
MA'LUMOTNOMA, SHUNINGDEK FLYUROGRAFIK
TEKSHIRUV NATIJALARI.**



**OIV-INFEKSIYASI YO'QLIGI HAQIDAGI SERTIFIKAT,
EMLANISH (PRIVIVKALAR) SERTIFIKATI.**



VIZA NUSXASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA KIRISH TAKLIFNOMASI

Agar siz O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishingiz uchun viza talab qilinsa, bizning universitetimiz nomidan taklifnomalar kerak. Viza 15 kun ichida O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi Konsullik bo'limidan beriladi.

Taklifnomani rasmiylashtirish uchun bizga quyidagi hujjatlar va ma'lumotlar zarur:



**PASPORT
NUSXASI**

**MA'LUMOTI HAQIDAGI
HUJJAT NUSXASI**



**TO'LDIRILGAN
SO'ROVNOMA
(e-visa to Uzbekistan)**

TAYYORLOV BO'LCIMI



O'zbekistonning boshqa oliy ta'limga muassasalarida bo'lgani kabi Samarqand davlat universitetida ham tahsil o'zbek, rus va ingliz tillarida olib boriladi.

Shu sababli, ushbu tillarni bilmagan chet ellik fuqarolar tayyorlov bo'limida o'qishlari kerak va 10 oy mobaynida tinglovchilar rus tili, shuningdek maxsus fanlarni (matematika, fizika, chet tili va h.) o'rGANISHADI.

Imtihonlar muvaffaqiyatli topshirilgandan so'ng talabalar tanlagan mutaxassisligi bo'yicha universitetning birinchi kursiga o'qishga kirish huquqini beruvchi sertifikat olishadi. Tayyorlov bo'limida darslar har yili 1-oktabrdan boshlanadi. Guruhlar 8-10 kishidan iborat bo'ladi.



Samarqand davlat universitetining tayyorlov bo'limi dasturida o'quv mashg'ulotlari zamonaviy o'qitish uslublariga asoslanadi, yangi o'quv qo'llanmalari va materiallar qo'llaniladi.



XORIJIY TALABALARGA ZAMONAVIY YOTOQXONADAN JOY TAQDIM ETILADI



Xorijiy talabalarga yotoqxona bepul taqdim etiladi.

O‘qish davrida Sizga talabalar shaharchasida joylashgan yotoqxonadan o‘rin ajratiladi. Qulay va shinam xonalar 2-3 kishiga mo‘ljallangan. Shuningdek, sizga yuvinish xonasi va oshxona ajratiladi.

Yotoqxona – bu ko‘p millatli talabalar oilasi, u yerda yashash Sizga juda ko‘p quvonch va yangi tanishuvlar olib keladi deb umid qilamiz, chunki aynan shu yerda butun dunyo bo‘ylab ko‘plab do‘stilar topasiz. O‘zbekistonlik talabalar bilan muloqot esa nafaqat o‘zbek madaniyati bilan tanishishingizga, shuningdek o‘zbek tilini o‘rganishingizga ham yordam beradi.

Bu ma’lumotlar Sizga foydali bo‘ladi va Samarqand davlat universiteti talabasi bo‘lishingizga ko‘maklashadi degan umiddamiz! Siz o‘zingizni qiziqtirgan savollar va masalalar bo‘yicha har doim bizga murojaat qilishingiz mumkin!




Universitetimiz haqida batafsil ma’lumotlarni quyidagi elektron manzillardan olishingiz mumkin:



www.samdu.uz

e-mail: irossu@samdu.uz

Yangiliklarni bizning
www.samdu.uz
saytimizda kuzating



Xalqaro aloqalar bo‘limi
Tel: (+998 66) 239 10 79
Faks: (+998 66) 239 11 40
Email: irossu@samdu.uz

